

1-IYUN – XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 17 (67286)  
2020-yil 1-iyun

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092



**Erkin MALIK,**  
O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan jurnalist

## NIMA UCHUN BOLALARNI HIMOYA QILISH KERAK?!

*Bolalarni himoya qilish kuni butun dunyo bolalari uchun eng beg'ubor va quvonchli bayram hisoblanadi.*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1950-yilda qabul qilingan qaroriga asosan har yili 1-iyun – «Bolalarni himoya qilish kuni» sifatida keng nishonlanadi. Nima uchun bolalarni himoya qilish kerak? Chunki Ikkinchi jahon urushi yillarida eng ko'p aziyat chekkan bolalar edi. Agarda kattalar bir bo'lib bolalarni himoya qilishmasa, hayot tarzi to'xtab qolishi mumkinligi hisobga olinib, bu kun belgilandi.

1-iyun bolalar kuni sifatida dunyoning juda ko'p mamlakatlarida, shu jumladan, bizning diyorumizda ham keng nishonlanadi. Biz keksha yoshdagi insonlar bu an'ananing hamisha bardavom bo'lishiga tilakdoshmiz. Chunki hayot

daryosi – ikki qirg'oqdan iborat. Biri bolalar bo'lsa, ikkinchi nuroniy, keksalar! Hayot aynan mana shu qirg'oqlar ila davom etadi...

Bolajonlarim, bugungi kunning qadriga yeting! O'tgan bobolaringiz, ajdodlaringiz tarixini chuqur o'rganing. Bolalar kuni bilan tabriklayman. Sizga baxtli bolalik va sehrli mo'jizalar, yorqin sevimli mashg'ulotlar va qiziqarli sarguzashtlar hamrohingiz bo'lsin.

## BOLALARNI ASRANG!

Bolalar kulgusi dillarga orom,  
Quvonch ulashar bizlarga har on,  
Shodligi insonga bo'lgaydir darmon,  
Dunyo bolalarin himoya qiling!


Bolali uyni deydilar bozor,  
Bolasiz uy esa go'yoki mozor,  
Shundan aytadilar takror va takror,  
Dunyo bolalarin himoya qiling!

Mehringizni bering, mehr ko'rasiz,  
Keksalik chog'ida qadr ko'rasiz,  
Nimani eksangiz, shuni o'rasiz,  
Dunyo bolalarin himoya qiling!

Ozod, obod yurtida unib-o'ssinlar,  
Oila bag'rida davron sursinlar,  
Buyuk kelajakni ular qursinlar,  
Dunyo bolalarin himoya qiling!

**Sitora TOSHLONOVA,**  
Andijon viloyati, Shahrixon  
tumanidagi 20-umumta'lim  
maktabi o'qituvchisi





Xudoyberdi TO'XTABOYEV,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi

## MEN YOZUVCHIMAN, MAQTANSAM BO'LAR...

*Aziz bolajonlarim! Kechagina siz kabi yosh bola edim. Kuch-g'ayratga to'la navqiron va o'ktam. Yillar suronida toblangan bobongiz mana bugun mo'ysafidlar qatorida. Siz aziz bolajonlar uchun kitob yoza boshlaganingizga 70 yildan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa-da, hali-hamon yozishga ulgurmagan qalb kechinmalarim qolib ketayotgandek tuyulaveradi...*

Axir jannatmakon o'lkada yashash baxtidan masur har bir ijodkor yozgani sayin yozgisi kela-verarkan. Qo'lga qalam olgan har bir ijodkor yurtimizda bo'layotgan ezgu ishlarni o'z asarlariga singdirib, kelajak avlodlarga yetkazishlari kerak. Buyuk Vatanimiz kelajagiga befarq bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Ayni damlarda xalqimiz boshidan kechayotgan sinovli kunlar ham bir kuni o'tib ketadi. Siz-u bizning vazifamiz hozircha uyda qolib, bir tan-u bir jon bo'lib, pandemiyaning yengish. Yorug' kunlar oldinda. Yurtboshimiz bosh bo'layotgan buyuk o'zgarishlarga o'z hissangizni qo'shing. Bu borada sizlarga omad tilayman. Doimo birinchilar safida bo'ling! Ha, aytmochi, sizlar uchun yangi qissa boshlab qo'yganman. Biz yozuvchilar Siz bolajonlar uchun asarlar yozishda bardavom bo'laveraylik!

## «Online – maktab» loyihasida

Respublikamiz maktablarida koronavirus pandemiyasi sababli 2020-yilning 16-mart kundan karantin e'lon qilinib, barcha sinflardagi dars mashg'ulotlari to'xtatildi. Bunda 2019–2020-o'quv yilining 3-choragi o'zining rejasidan bir hafta oldin tugatib qo'yilgan edi. Endi o'quvchilar bahorgi ta'tilni 21-mart kundan emas, 15-martdan boshladilar. Hukumatimiz bu pandemiya sababli barcha o'quvchilarning ta'lim olishlari izdan chiqishi kerak emasligi haqida qaror qabul qildi. Unga ko'ra, Respublika televideniyesi poytaxtda joylashganligini e'tiborga olib, shaharning har bir tumanidan kompyuter texnologiyasini puxta o'zlashtirgan, o'z fani yuzasidan yetarlicha ilg'or tajriba-ga ega bo'lgan o'qituvchilar izlana boshlandi. Ularning ekran oldida mavzularni hayotga bog'lay olish qobiliyatlari nazoratdan o'tkazilib, o'qituvchilar saralab olindi. Mart oyidan darslar suratga olinib boshlandi.

## TOPSHIRIQLARIM JAVOBSIZ QOLMADI



Feruza ALIMXANOVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim  
maktabining Informatika va axborot texnologiyalari fani  
o'qituvchisi

«Onlayn-maktab» loyihasida asosan 5-, 7-, 9-, 10-sinflarga 4-chorak mavzularini o'tdim. Onlayn maktab dars o'tish jarayonlarida o'quvchilarga mavzular qiziqarli bo'lishi uchun innovatsion pedtexnologiyalardan keng foydalandim. Mavzudan kelib chiqib tushunchalarni kundalik hayot bilan bog'lashga harakat qildim. Darslikdan tashqari bo'lgan ma'lumotlarni ham berib o'tdim. Mavzularni qiziqarli topshiriqlar bilan boyitdim. Ushbu loyiha har bir o'quvchiga va o'qituvchiga o'z ustida ishlashiga katta ta'sir ko'rsatdi. 7-sinflarga «Elektron pochta» mavzusi o'tilganida, topshiriqni o'z o'qituvchilarining manziliga yoki men ko'rsatgan manzilga yuborishlarini so'ragan edim. Respublikamizning bir qancha viloyatlaridan, hattoki Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'quvchilar ham javob yo'llaganini ko'rib, xursand bo'ldim.



## «DARSINGIZNI MAQTASHDI»

### BU SO'Z MENGA KATTA KUCH BAG'ISHLADI

Studiyada dars o'tish sinf xonasida dars o'tishdan ancha farq qiladi. Avvaliga biroz qiynalдим, keyin esa operator va muharrirlarni o'quvchilar o'rnida ko'rib, dars o'ta boshladim. Ular ham matematikani o'rgana boshladilar (boshqa fanlar kabi). Rejissor, operatorlarning matematikani endi tushunyapman, deyishganda yanada ruhanib ketar edim. Keyinchalik esa ekran ortida minglab o'quvchilar meni tinglab ko'rishayotganini his qila boshladim. Ular bilan g'oyibona bog'lanib, savol-javob qilib, mavzularni tushuntirishga o'tdim.

O'quvchilarga ham oson bo'lmasligi aniq edi. Shuning uchun darslarni soddaroq qilib, qiziqarli holda o'tishga harakat qildim.

Oldin darslar Multimediya markazida suratga olindi, keyin esa o'qituvchilarning sog'liqlarini himoyalash maqsadida suratga olish ishlari Toshkent shahridagi Prezident maktabida davom ettirildi. U yerda o'qituvchilar uchun hamma sharoit yaratib berildi. Xalq ta'limi vaziri va vazirlik xodimlari, Toshkent shahar Xalq Ta'limi Bosh Boshqarmasi xodimlari biz o'qituvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab turdilar.

Ularning «darsingizni maqtashdi» yoki darsimni kuzatib rahmat aytishlari menga juda katta kuch bag'ishlar edi. Chunki meni kuchli hayajon bosgan edi. Butun O'zbekistondagi o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilar ko'radi, mavzuni yaxshi yetkazib bera olamanmi, darsga qo'yilgan maqsadimga erisha olarmikinman, degan savollar qiyinar edi.

Darslar efir orqali uzatila boshlagandan keyin ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'plab hamkasblarim, ota-onalar, o'quvchilarimdan minnatdorchiliklar eshitib, boshim osmonga yetdi.



Durdona SHARIPOVA,  
poytaxtimizning Uchtepa  
tumanidagi 84-umumta'lim  
maktabining matematika  
o'qituvchisi:



# BOLALIKNING OLTIN DAMLARI

**Bolalak damlarining har oni bayram! Xalqimiz bejiz, «Bolali uy bozor», deyishmaydi. Biz ulg'ayganimiz sari u tengsiz, nurli olamni sog'inaveramiz.**

Mening bolalik yillarim Boysunning bepoyon qir-adirlari bag'rida kechgan. O'ylasam, hammasi xuddi kechagidek yodimga tushadi. U damlar garchi qanchalik mashaqqatli yillarga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, men uchun nihoyatda azizdir.

She'rlarimdan Boysun tog'ining ifori ufurib turadi. Chunki men ularni bolalik damlarimda yurakdan his qilganman. Yaqinda bolalar uchun «Qo'shiq» nomli yangi dostonimni yozib tugatdim. Uni yaqin kunlarda o'quvchilar hukmiga havola etish niyatidaman.

Bugungi kun bolalariga juda havasim keladi. Davlatimiz tomonidan ular uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, shohona koshonalarda tahsil olishmoqda.

Mening ularga birgina tilagim – bolalikning oltinga teng, bebaho onlarini qadrlab yashashsin. O'qiydigan davr-u zamonlar keldi, farzandlarimiz ko'proq kitob o'qishsin. Kitob o'qigan bola hayotda hech qachon qoqilmaydi, kam bo'lmaydi.



Usmon AZIM,  
O'zbekiston xalq shoiri

## Lesson 17


### HAPPY CHILDREN'S DAY!!!

The earth reveals its innocence through the smiles of children. Children you are the future of our country. So on this day... I wish you joy and success! Happy children's Day!



Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

### BEN FRANKLIN – SWIM FLIPPERS



In the early 1700, at the age 11, Franklin realized he could cut through the water more easily while swimming if he had more surface area through which to push. His original design was handheld fins made

out of oval shaped planks with holes in the middle for his hands and feet.


## KID INVENTORS

## WHO CHANGED OUR LIVES

### FRANK EPPERSON – POPSICLE




Eleven-year-old Frank Epperson invented what we have come to know as a popsicle. It was a winter's eve in 1905 when Frank decided to mix a frozen concoction containing soda water powder and water. He accidentally left the drink outside overnight, with the stirring stick in the glass. The mixture froze solid and first



popsicle was born.

### GEORGE NISSEN – TRAMPOLINE



George invented the trampoline in 1930 at the age of 16. He came up with the idea after seeing trapeze artists drop into a net at the end of the performance. He thought the act would be more exciting if they kept bouncing around so he began


working in his parent's garage. The original invention had a metal frame and a canvas stretched over it, but as he got older he perfected the design with a nylon, giving it more bounce.

### LOUIS BRAILLE – BRAILLE




Louis caught a severe eye infection when he was three years old which rendered him blind. For years he struggled to trace his finger over raised letters and had a lot of difficulty with it. When he was twelve, he learned of a method of silent communication used by the French military. He simplified that process, and suddenly he

was able to read whole lot easier. He first presented his work in 1924. Today, Braille is used by the blind community worldwide.



### CHESTER GREENWOOD – EARMUFFS



It was 1873 and Chester Greenwood was just 15 years old when his ears got painfully cold one day while ice skating. He found that wrapping a scarf around his head didn't help much, so he



decided to find a better solution. Greenwood designed a wire frame and his grandmother to sew beaver skins to it-thereby making the first pair of earmuffs. He ended up patenting the invention by age 19 and even selling them to soldiers during the first World War.



O'zbekiston bolalar va o'smirlarning «Tong yulduzi» gazetasi maktab o'quvchilari o'rtasida

# «MENING YANGI QAHRAMONIM»

respublika insholar tanlovini e'lon qilgan edi

4-5-betlar

**Qadrli o'quvchilar! Ta'til kunlaringizni (karantin davrida) mazmunli, foydali o'tishiga hissa qo'shish niyatida «MENING YANGI QAHRAMONIM» nomli insholar tanlovini o'tkazishga qaror qilgan edik. Quyida siz aziz o'quvchilardan kelgan insholar bilan tanishasiz.**

## ELGA SADOQAT – OLIV JASORAT

**Qancha chuqurdan qaynasa buloq,  
Suvi shuncha pok bo'lur, shuncha totlir.**  
SHUHRAT

Kitoblar mening doimiy hamrohim. Kitob o'qiganim sari tafakkur olamim boyib borayotganini his qilaman.

Mening yangi qahramonim «Mardlik cho'qqisi» asaridagi To'maris obrazidir.

Bizning muqaddas diyorumiz buyuk va shonli tarixga ega. Uning tarixi zarvaraqalaridagi har bir bitik kamalakning serjilolaranglaridek, zarrin quyosh nurlaridek ziyo sochib turadi.

Mana shunday tariximizning shonli sarhadlariga nomi oltin bitiklar ila muhrlangan To'maris o'zbek ayollarining yorqin timsolidir.

To'maris – xalqni oyoqqa turg'azgan, yurtini yog'iydan asragan mard, shijoatli, sadoqatli ayol obrazi. U o'zining emas, o'zgalar manfaatini, xalqining farovon turmushini o'ylab ish yuritadi. Menimcha, uning bu xislatini hozirgi kunda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, o'zgalarni hayot atalmish ulug' ne'matdan bahramand qilayotgan shifokorlarimizga qiyoslasak arziydi.

Sevimli adibimiz Shuhrat bu balladasida asarning g'oyaviy mazmunini ochib berish bilan birga, badi-

yatiga ham alohida e'tibor qaratadi:

*Aql bu – daryo.*

*Mehr bu – ko'.*

*So'z bu – dur.*

Men o'zimning yangi qahramonim hisoblanmish To'maris obrazi orqali juda ko'p insoniy fazilatlariga ega bo'ldim.

Hozirgi karantin vaqtida uyda turib o'qiyapmiz, besabab ko'chaga chiqmayapmiz. Bu esa, eng avvalo, sabr va matonatni talab qiladi. Uyda qolib nafaqat

o'zimni, balki oila

a'zolarimni, yaqinlarimizni butun jamiyatni koronavirus atalmish balodan, shafqatsiz dushmanidan xalos etamiz. Zero, uyda qolib, fan asoslarini chuqur egallash, karantin qoidalariga rioya

qilish ham bir jasoratdir.

Ezgulik, albatta, tantana qiladi, chunki bizning tomirlarimizda To'marisning qoni bor...

**Shirin BAXSHILLOYEVA,  
Buxoro viloyati, Romitan  
tumanidagi 35-umumta'lim  
maktabining 5-«B» sinf  
o'quvchisi**



**Mashhur rus yozuvchisi, ko'plab hayotiy voqealarga asoslangan hikoyalar muallifi Anton Pavlovich Chexov asarlarida ma'rifatli rus ziyolilari bilan birga ruhiy, ma'naviy qashshoq, tafakkuri, tuyg'ulari, qarashlari bir qolipta tushgan kishilarning qiyofasi juda ustalik bilan chiziladi. Men yozuvchining «Sirli xilqat» nomli to'plamiga kiritilgan «Garov» nomli hikoyasini mutolaa qilib, o'zimning yangi qahramonimni topdim.**

## «SIRLI XILQAT»NING «GAROV»I

«Garov» hikoyasining asosiy qahramonlaridan biri – Huquqshunos. Hikoya bankir va yosh huquqshunoslarning qatl hukmi bilan qamoq jazosi borasidagi ziddiyati asosiga qurilgan. Saodatli va fayzli umr har qanday odamning orzusidir. Bunday hayot tarzi uchun faqat cheksiz boylikning o'ziga yetarli emas. Buning uchun minglab kitoblarni o'qish ham kamlik qiladi.

Hammasi quyidagicha: Qorong'u kuz oqshomi. Keksa bankir xonada u yoqdan-bu yoqqa borib kelar, u bundan 15 yil ilgari mana shunday kuz oqshomida katta ziyofat berganini esladi. Kechada o'lim jazosi haqida bahs qizg'in tus olgandi. Ziyofatda ancha-muncha olimlar, muxbirlar ham bor edi. Ularning aksariyati o'lim jazosiga norozilik bildirishadi. Davrada 25 yoshlardagi bir huquqshunos ham bor edi. Uning fikri «O'lim jazosi ham, umrbod qamoq jazosi ham badaxloq choralardandir, biroq ulardan birortasini tanla deyishsa, men, albatta, ikkinchisini tanlardim. Har holda, yashamoq o'limdan afzalroqdir», deya bayon etiladi. Bahs tortishuvga aylanib, bankir va huquqshunos o'rtasida garov o'ynaladi. Garov shartiga ko'ra yutqazgan 15 yil Kazematda o'tirishi qayd etiladi. Bu garov uchun bankir 2 million pul tikadi. Huquqshunos esa o'z erkini. Garov shartiga ko'ra huquqshunos bankirning chorbog'idagi xilvat go'shada qamoq muddatini qattiq nazorat ostida o'tashi lozim edi.

Garov muddati 1870-yil 14-noyabr kunduz soat 12:00 dan 1885-yil 14-noyabr kunduz soat 12:00 gacha belgilanadi.

Hikoya so'ngida bankir 15 yil ilgari garov o'ynagani uchun qattiq afsuslanadi. U juda badavlat edi, endi bo'lsa o'zi-o'zidan «Pullarim ko'pmi yoki qarzarlarim?» deb so'rashga yuragi

dov bermaydi.

Va shunday qarorga keladi: «Huquqshunosni o'ldirish kerak!».

Shu maqsadda soat tungi uchda yer-to'laga tushadi. Bank sohibi huquqshunos hozir hayratdan qichqirib yuboradi, deb o'ylaydi. Qarasaki, stol yonida sochlari ayollamikedek o'sib ketgan, soqol-mo'ylovi baroqlashib, terisi suyaklariga yopishib ketgan bir kishi o'tirardi. Uning rangi murda kabi oq, yonoqlari ich-ichiga botib ketgandi. Uni ko'rgan odamning yuragi tars yorilib ketishi hech gap emasdi. Bankirning ko'zi stol ustida turgan varoqqa tushdi. Unda shunday so'zlar yozilgandi: «O'sha garovga tikilgan pullarga haqdorlik huquqidan o'zimni mahrum etish maqsadida belgilangan muddatdan besh soat burun bu yerdan qochib chiqib, o'rtamizdagi garov shartini atayin buzaman...».

Xulosa o'rinda, hikoyadagi bankir va huquqshunosning qilmishi sharqona odob-axloq mezonlari bilan qaralganda, hayotni pul, boylik yoki mol-dunyo bilan emas, aql, fikr va mehr-oqibat bilan o'lchash kerakligiga undaydi.

«Ochko'zning o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymas» degan maqolning bejiz aytilmaganini isbotlaydi.

**E'zoza XOLMO'MINOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog'  
tumanidagi 100-umumta'lim  
maktabining 7-sinf o'quvchisi**



## ZUKKO BOLAKAYNING FAZILATI

**Hammaning ham o'ziga yarasha sevimli qahramoni bo'ladi. Mening yangi qahramonim Otabek Quvvatovning «Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig'ida» asaridagi izlanuvchan yosh kashfiyotchi Olimjondir.**

U garchi kichik bo'lsa-da, ba'zi kashfiyotchi olimlardan farqli o'laroq, juda ko'p ixtirolar muallifi. U doimo izlanishda. Olimimiz zamon va makon oralig'ida bo'lib, barchaga ezgulik ulashgan, bilim-zakovati tufayli hattoki o'sha o'tgan davr ulamolarining aqlini shoshirib qo'ygan. Olimjon ezgulik kuychisi, chunki u zamon va makon oralig'ida barchaga yaxshilik qiladi. Qahramonimning asosiy maqsadi dunyodagi jamiki yomonliklarni yo'q qilishdan iborat bo'ladi. Uning barcha sarguzashtlari sehrlilarni topganidan so'ng boshlanadi. Olimjon ixtirosi orqali zamon va makon oralig'iga tushib, o'sha davr qahramonlaridan sehrlilarni buyum olishga muvaffaq bo'ladi.

Olimjon kitob mutolaasi bilan ham band bo'ladi. Hattoki uning ko'p kitob o'qiyotganini ko'rgan onasi unga dakki ham berib qo'yadi. Shuningdek, Olimjon timsolidagi Xo'ja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi «tegirmonga tushsa butun chiqadigan» zukko bolalarning fazilatlarini yaqqol mujassamlashtirganligini ko'ramiz. Olimjon doimo izlanish bilan band va u tez-tez ixtirolar qilib turadi. Bu ixtirolari bilan esa u butun olamga tanildi. Mehnatning tagi rohat deb shuni aytishsa kerak! Olimjon bir o'zi yaratganmi ixtiro? Uni do'stlari yordam bermaganmi? Shunday savollar tug'ilishi tabiiy. Olimjonning do'stlari uni juda yaxshi ko'rishadi, uning uchun jonlarini berishga ham tayyor. Shu o'rinda bir fikr esimga

tushdi: «O'zingga shunday do'st topki, u seni yiqitadigan emas, yiqilganingda turg'azadigan bo'lsin». Olimjonning do'stlari ham unga mushkul vaziyatda chin do'st bo'lib, yordam qo'lini cho'zishdi. Nima bo'lganda ham Olimjon g'olib, u yovuzlik ustidan g'alaba qozondi.

Olimjonga o'xshagan ezgulik tarafdorlarini barcha olqishlaydi, yomonlik yo'lini tanlaganlardan esa barcha nafatlanadi. Olimjon muvaffaqiyatga erishishida unga eng muhimi ilm-u ma'rifati yordam beradi.

**Shahina OLIMOVA,  
Navoiy viloyati, Zarafshon shaharidagi  
10-umumta'lim maktabining  
7-«V» sinf o'quvchisi**



## MEHNATDAN KELSA BOYLIK...

**Har bir yozuvchi yoxud shoirning orzu-o'ylari, asarga singdirgan tuyg'ularini his qilish o'quvchidan alohida e'tiborni talab qiladi. Asarning ruhini, mohiyatini his qilib o'qimaslik tabiiy gul bilan sun'iy gulning farqiga bormagandek gap. Aksariyat badiiy asarda insonga xos bo'lgan fazilat va illatlar ifodalanadi.**

Bolalar adabiyotining yirik namoyandasi Xudoyberdi To'xtaboyev qalamiga mansub «Quyonglar saltanati» asaridagi voqealar ham hayvonlarga rahmdil qahramon obrazi orqali ochib beriladi.

Insonlarga xos bo'lgan do'stlik, hamjihatlik, hamfikrlik, mehribonlik, ezgulikka intilish kabi fazilatlar asar mazmunini boyitadi. Bu asar urushdan keyingi og'ir davrlarda sodir bo'ladi. Asar voqealari Xonkeldi, ya'ni Qo'rg'oncha qishlog'ida bo'lib o'tadi.

Asar qahramonlari Qo'rg'oncha o'sha qishloqdagi Eshonbog'ga borib qolib, tilla topishadi. Egamberdi vafot etgan onasi va uning dugonalari qabriga marmardan yodgorlik qo'yimoqchi, Karimberdi dadasiga yangi traktor olib bermoqchi bo'ladi. Asar oxirida ular barcha orzulariga erishadi.

Bu asarni o'qigan har bir kitobxon o'zi uchun yangi ijobiy qahramon topadi. Asar qahramonlarini bugungi zamon yoshlari bilan solishtiradigan bo'lsak, bugungi kunda yoshlarga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yosh tadbirkorlarni

qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. O'sha urushdan keyingi davrlarda yoshlarga bunchalik e'tibor berilmagan.

Lekin shunday og'ir damlarda ham halol mehnat qilib, o'z maqsadiga erishgan Egamberdi va Karimberdi kabi yoshlar bugungi kunda ham oramizda ko'p bo'lsa, yurtimiz dunyodagi eng buyuk davlatlardan biri bo'ladi, desam, xato qilmagan bo'laman.

Xulosa qilib aytganda, Xudoyberdi To'xtaboyev bobomiz qalamiga mansub «Quyonglar saltanati» sarguzasht asarida xalqimizning «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik» degan ibratli maqoli yana bir bor o'z isbotini topadi. Inson avvalo, maqsad bilan yashashi lozim. Shundagina mazkur asar qahramonlari kabi o'z maqsadlariga erishadi.

**Lola NORQULOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Chiroqchi tumanidagi  
85-umumta'lim maktabining  
7-sinf o'quvchisi**



**Oftob kabi zarrin nurlari bilan inson ko'nglini munavvar etuvchi, zerikishga aslo yo'l qo'ymaydigan do'st kitobdir. Ba'zi asarlar asosida badiiy film, multfilmlar yaratilgan. Ammo kitob o'qishning gashni boshqacha! Kitobda ro'y bergan voqealar xotiramizda bir umrga saqlanib qoladi.**

## MO'JIZAKOR OLAMGA SAYOHAT

Televizorda ko'rganlarimiz esa tez unutiladi. Kitob o'qigan kishining ongida yangi bir olam paydo bo'ladi. Bu oddiy olam emas, balki sarguzashtlarga boy, sehrlil olam. Go'yo mening yangi, sevimli qahramonim Elli sayohat qilgan mamlakatga o'xshaydi.

Men ham o'z olamimni boyitish uchun bir-biridan qiziqarli kitoblarni mutolaa qilaman. Ammo hammasidan ham ko'proq e'tiborimni tortgan kitob bu jahon adabiyoti namoyandasi Aleksandr Volkov qalamiga mansub «Zumrad shahar sehrgari» nomli asar hisoblanaidi. Men uyda qolgan vaqtimda shu asarni o'qib, o'zimga yangi qahramon tanladim. Asarning bosh qahramoni xushchaqchaq va mehnatsevar Elli ismli qizaloqdir.

Yaxshilik, bag'rikenglik, mehribonlik, saxiylik Elliga xos fazilatlaridir. Uning uyhasi kuchli bo'ron tufayli notanish mamlakatga tushib qolgan. U yo'lida uchragan Qo'riqchiga, Temir o'tinchiga va Sherga chin dildan yordam berdi, ular bilan do'stlashdi. Qizcha do'stlarining muqaddas orzularini amalga oshirish niyatida Zumrad shahar sehrgari Gudvinning yoniga borishga ham tayyor edi. O'z Vatanga bo'lgan kuchli muhabbati tufayli har qanday mushkul vazifalarni bajarishga

tayyor bo'ladi.

Qahrli va rahmli sehrgar Gudvinning haqiqiy sehrgar emasligi oshkor bo'lgach, Elli hayratda qoladi. Yozuvchi shu voqea orqali qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan keyin ham chiqishini, yolg'on so'z baribir fosh bo'lishini isbotlaydi.



Jannatmonand O'zbekiston deb nom olmish bo'stonimizda cheksiz mehrga to'la qalbli insonlar kam emas. Ayni paytda, yurtimiz sinovli kunlarni boshidan kechiryapti. Shunday bo'lishiga qaramay, yurtini, xalqini jonidan ortiq sevgan vatandoshlarimiz o'z kasbini sodiqlik bilan ado etishmoqda.

Masalan, g'amxo'r shifokorlarimiz tinim bilmay mehnat qilmoqdalar. Harbiylarimiz tinchligimizni o'ylab kun-u tun xizmatdalar. O'qituvchi va murabbiylar jon kuydirib, shogirdlariga masofaviy dars o'tishadi.

Bunday e'tibor va g'amxo'rliklarga munosib bo'lish uchun biz ham mehribon Elli kabi odobli bo'lsak, o'qib-o'rgansak, uyda qolsak, bu sinovlarni, albatta, yengib o'tamiz.

**Nasiba TO'XSANOVA,  
Buxoro shahar 23-umumta'lim  
maktabining 6-«B» sinf  
o'quvchisi**

## KITOBLAR KO'ZGUGA O'XSHAYDI

**Kitoblar ko'zguga o'xshaydi, ular faqat sizning qalbingizda nima bo'lsa, shuni aks ettiradi.  
Karlos Ruis SAFON**



Aslida, kitob mutolaasi mening eng sevimli mashg'ulotimdir. Sevimli asarlarimni o'qib, o'zimga xulosa chiqaraman, kitobning mazmunini o'rtoqlarim bilan tahlil qilaman. Kuni kecha sevimli yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanini o'qib tugatdim.

Romanda xalqimiz tarixining eng qora kunlari – xon zamonlari tasvirlangan. Asarning bosh qahramoni – Anvar timsolidagi yozuvchi o'zining orzusidagi, idealidagi

insonni tasvirlagan. Biz bilamizki, Abdulla Qodiriy jasoratli, vatanparvar inson bo'lgan. Anvar siyosida o'zining shu fazilatlarini aks ettirishga harakat qilgan.

Anvar ilk marta Nasim ismli bola bilan do'st tutinadi. Nasim timsolidagi o'ziga hamfikr, hamnafas insonni ko'radi. Ko'proq vaqtini u bilan o'tkazadi. Biroq shafqatsiz hayot ular orasidagi do'stlikni ajal tufayli ajratadi. Anvar bu ayrilqandan qattiq ta'sirlanadi. Tez-tez do'stining qabriga borib turadi. Bu holat meni ham qattiq ta'sirlantirdi. Do'stiga bunday sadoqatli bo'lish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Bu qadar sadoqat ko'rsatish qalbida ulkan muhabbat, ulug'lik bor insonlargagina xosdir.

Anvardagi sadoqat tuyg'usi

undagi ma'rifatparvarlik bilan uyg'unlashib ketgan. Anvar o'zining yorug' kelajagini ilmda, ma'rifatda deb biladi. Undagi sabrlik, zukolik ma'rifati bo'lishga undaydi. U boshqa tengdoshlaridan farqli ravishda ko'p vaqtini kitob mutolaasi bilan o'tkazadi. Domlasi bergan topshiriqlarni sidqididan, o'z vaqtda bajarishga intiladi. Ba'zan boshqalarga ham o'z bilganlarini o'rgatadi. Solih maxdum avvaliga Anvarni «Bir yetim bola-da», deb nazariga ilmaydi. Keyinchalik undagi tirishqoqlik, harakatchanlikni ko'rib, unga alohida e'tibor bera boshlaydi.

Albatta, hayot silliq davom etavermaydi. Oq bor joyda qora, ezgulik bor joyda yovuzlik bor. Anvardagi bu yuksalishlar «Mehrobdagi chayonlar»ga yoqmaydi. Ular Anvarga nisbatan fitna uyushtiradilar.

U xonni adolat, haqiqat haqidagi so'zlari bilan lol qoldiradi. Hatto dor tagida ham o'zini mardona tutadi. Mulla Abdurahmon bilan bo'lgan «jang»da ma'nani g'olib chiqqanligidan masrurlik hissini tuyadi.

Jasurlik, bilimdonlik, haqiqatparvarlik, sadoqat insonlardagi noyob fazilatlaridir. Qay bir jamiyatda bunday insonlar ko'p bo'lsa, u jamiyat, albatta, ravnaq topadi. Anvar qiyofasida men hayotdagi mard, fidoyi insonlarni tasavvur qilaman. Men Anvar kabi qat'iyatli, jasur, do'stiga sadoqatli, yoriga vafodor, haqiqatparvar yigit bo'lishni orzu qilaman. Hayotimga yangicha orzular, maqsad va niyatlar olib kirgani uchun Anvar timsolidan minnatdorman.

**Diyorbek DONIYOROV,  
Sirdaryo viloyati, Boyovut tu-  
manidagi 13-umumta'lim makta-  
bining 8-sinf o'quvchisi**





## BOLANING KO'NGLIDA DAHO YASHAYDI!

Eshqobil SHUKUR,  
O'zbekistonda  
xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi

**Bolaning tabassumi osmon tabassumiga o'xshaydi. Shuning uchun bolalar kulganda, dunyo yayraydi, yashnaydi. Ko'hna dunyoni bolalar yangilab turadilar. Yoshingiz nechada bilmayman, mayli, oltmishdadir, boringki, yetmish yo saksonda, lekin, baribir bu olamga bolalar nigohi bilan qarab ko'ring. O'zingizni qaytadan kashf etganday bo'lasiz. Bolalar yuzida barq urayotgan hayotni ko'rsa bo'ladi, bolalar ko'zida Yaratganning nurini ko'rsa bo'ladi, bolalar kulgisida suvning ovozi, hayot qo'shig'ini eshita bo'ladi. Dunyoni bolalar asrab qoladilar. Aytganlaridaykim, «Bolaning ko'nglida daho yashaydi!» Assalom, bolalar! Assalom, hayot!**

## BOLAJON

Sabo nafaslasan, saboh yuzlasan,  
Sen sohibjamolsan, sen sohibkamol.  
Suvlar tovushiday ajib so'zlasan,  
Sen nonning isidan terolasan bol.

Yursang, qadamingda gullaydi chaqmoq,  
Bahorlarni tug'ar senga deb bog'lar.  
Sen askar shamollar topingan bayroq,  
Kiftin tutib turar mo'ysafid tog'lar.

Shamolday erkinsan, suvday halolsan,  
Sut kabi azizsan, jon kabi bolsan,  
Sohibistiqbolsan, sohibkamolsan.

Nurmuhammad ammasini yangalar bilan qo'shni mahallaga uzatib bordi. Kechasi ammasi yasatilgan xonada, Nurmuhammad esa ayasi bilan ayvonda yotdi. Ertalab ayasi uni erta uyg'otdi.

– Mayli, – dedi Nurmuhammad, – dadamga boramiz.

Nurmuhammad ayasi bilan ko'chaga chiqdi. Uylari uzoq emas, bitta ko'cha ikkala mahallani birlashtirib turadi.

Dadasi endi uyg'onib, choy qo'yayotgan ekan. Ayasi ota-o'g'ilga nonushta tayyorlab berdi-da, yelim xaltaga all-animalarni solib, darrov ortiga qaytdi.

Nurmuhammad esa nonushta qilib bo'lgach, dadasi bilan birga bog'chaga yo'l oldi. Namozshomda bog'chadan kelsa, ammasi hali ham uyga kelmabdi.

Ertasiga ham, indiniga ham kutdi, ammasidan darak bo'lmadi. Endi u ammasidan xavotirlana boshladi.

Ayasidan so'rasa:  
– Ammang erta-indin kelib

qoladi, – dedi.

Lekin ammasi erta-indin ham kelmadi.

Akasiga:

– Olib boring, – deya yalindi.

Ayasiga:

– Olib boring, – deya xarxasha qildi.

– Uyat bo'ladi, – deb olib borishmadi.

Shunda u o'zi borishga qaror qildi. Ammasi qolgan uy juda yaqin-ku. Borgan-ku.

Nurmuhammad ertalab barvaqt uyg'ondi-da, ko'cha darvozasini ochib, o'zi bilgan yo'ldan tez

## SIZNI YAXSHI KO'RAMIZ



Muxtor XUDOYQULOV,  
Filologiya fanlari doktori

Salom, aziz bolalar,  
Chehrasi gul-lolalar,  
Doim qaynab toshguvchi,  
Tog'dagi shalolalar.

Bolalar, jon bolalar,  
Mehrimizni oralar.  
Sizni yaxshi ko'radi,  
Bizdek kekxa bobolar.

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni bilan yer yuzidagi barcha bolajonlarni, shu jumladan, o'nlab nabira va chevaralarim qatori butun O'zbekiston farzandlarini chin ko'ngildan tabriklayman! Ularning baxtli-saodatli, kuchli va aqlli bo'lib o'sishlarini, kamolotga yetishlarini tilayman.

## SINGLIM TA'RIFI

Jajjigina singlim bor,  
Fazilatleri bisyor.  
Ko'zlari go'yo munchoq,  
O'zi menga ovunchoq.  
Biyron-biyron so'zlari,  
Kulib turar ko'zlari.

Sumbul sochlari uzun,  
Oyga o'xshatgum yuzing  
Lablari misli g'uncha,  
O'zi-chi, asl gulcha.  
Doim kulib boqadi,  
Menga juda yoqadi.



Feruza RUSTAMOVA,  
Sirdaryo viloyati, Shirin shahridagi  
3-umumta'lim maktabining 4-«F» sinf o'quvchisi



## REKLAMA

Serial orasida  
Reklama bo'lib qoldi.  
Buvimning jahli chiqib,  
Bizlarni quvib soldi.

To'g'ri-da, qizig'ida,  
Kinosi to'xtab qoldi.  
Reklama tugaguncha,  
Buvim ham uxlab qoldi.



Nilufar KARIMOVA,  
Guliston shahridagi  
7-umumta'lim makta-  
bining 5-sinf o'quvchisi



Abdulhay NOSIR

– Tur, o'g'lim, – dedi uning boshini silab, – seni uyga olib borib qo'yay. Men qaytib kelishim kerak.

– Ammam-chi?

– Ammang endi bu yerda qoladi, – dedi ayasi xotirjam.

– Unday bo'lsa, men ham shu yerda qolaman, – dedi Nurmuhammad yana o'ringa cho'zilib.

– Yo'q, sen qolsang uyat bo'ladi, – dedi ayasi.

– Hozir dadangni oldiga boramiz. Dadangni bir o'zlari uyda qolganlar. Nurmuhammad qachon kelarkin, deb o'tiribdilar.

yurib keta boshladi. Uzoqdan ammasi yashayotgan uy ko'rindi. Eshik oldini atlas ko'ylak kiyan bir opa supurar edi.

– Ammanga o'xsharkan, – dedi Nurmuhammad shivirlab. – Voy, ammamning o'zi-ku! – Nurmuhammad yugurib borib, ammasini mahkam quchoqlab oldi.

– Voy, – dedi ammasi, – Nurmuhammad, qanday kelib qolding?

– Sizni juda sog'indim, – dedi Nurmuhammad yig'lamsirab. – Bormayapsiz-ku uyga...

– Endi boraman, – dedi ammasi jiyanini quchoqlab. – Men ham seni juda sog'indim.

Shu payt eshik ochilib, ichkaridan bir amaki chiqdi. Ammasi kulimsirab unga Nurmuhammadni tanishtirdi.

– Bu kichik ukajonim – Nurmuhammad.

– Shundaymi? – dedi amaki. – Qani, beshni ol, polvon, bir ko'rishib qo'yaylik. Mening otim Usmon.

– Meniki Nurmuhammad.

– Uyga kiramizmi?

– Yo'q, ammamni opketgani keldim, – dedi Nurmuhammad dabdurustdan.

– Nega olib ketasan? – dedi amaki kulib.

– Ammamni yaxshi ko'raman-da...

– Uni men ham yaxshi ko'raman.

– Siz boshqa amma toping, – dedi Nurmuhammad ammasiga qattiqroq yopishib.

– Kel, – dedi amaki, – ammangni ikkalamiz yaxshi ko'ra qolaylik.

– Bo'пти, – dedi Nurmuhammad chehrasi yorishib.

– Endi men ketdim.


– Qayoqqa? – so'radi amaki.

– Shoshma, – dedi ammasi.

Nurmuhammad esa orqa-oidiga qaramay xursand holda uyi tomon yugura ketdi.



## QALBIMIZNING PODSHOHLARI



**Umida ABDUAZIMOVA,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi

O'zbekning uyida hamisha bayram. O'zbekning xonadonida abadiy bahor. Bu muqaddas makonda bolalar borligi uchun. Go'daklarni jannat elchilari, deb ataymiz. Qalblarni qalblarga bog'lovchi ilohiy qudrat, deb ataymiz. Bolali uy bozor, deymiz. Barchasi o'rinli, barcha o'xshatishlar go'zal. Bizning bolalar oldidagi qarzdorligimiz kelajak oldidagi qarzdorligimizdir. Atrofimizda aylanib yurgan farish-talar uchun yozayotgan she'rlarim, aytayotgan ertaklarim, bitayotgan topishmoqlarim, tez aytishlarim ijodimning eng nozik va qimmatli javohirotlaridir. Barchasi bolalarning



**Zulfiya MO'MINOVA,**  
«Do'stlik» ordeni  
sohibasi, shoira

boshidan sochilsin. Yozganlarim atirgul yaproqlaridek jajji oyoqchalar ostiga poyandoz bo'lsin.

Aziz bolalar, bayramingiz muborak bo'lsin!

\*\*\*

*Sen hali ulg'ayib bir qiz bo'lasan,  
Tishi dur, qoshlari qunduz bo'lasan,  
Sadoqat yurtining samolarida,  
To'lin oy bo'lasan, yulduz bo'lasan.  
Sen hali ulg'ayib o'g'lon bo'lasan,  
Kuch quvvat sohibi arslon bo'lasan.  
Sen ummon bo'lasan, osmon bo'lasin,  
Chin inson, hazrati inson bo'lasan.*

**Aziz bolajonlar! Bugun sevimli shoira opangizning tavallud ayyomi. Ushbu quvonchli kun bilan tahririyatimiz hamda siz bolajonlar nomingizdan samimiy qutlaymiz. Ularga sog'liq, ijodiy barkamollik tilaymiz.**

### O'Z TILIM BILSAM...

Men o'zbekman,  
Nechta til  
Bilishim qildim hisob.  
O'z tilimda mustaqil  
So'zlashib qildim xitob.

Turkiy tillar guruhi  
Asosi ekan bitta.  
Og'a-ini urug'in  
E'zozlaydi, albatta!

Qo'miq, shor, qoraqalroq,  
No'g'oy, qaray, tatar til.  
Boshqird, qirg'izcha, qozoq  
Tildan anglanadi dil.

Xakas, tuva, yuqut til,  
Chuvash, uyg'urcha, o'zbek.  
Qadim, hozir...  
Muttasil,  
Tushuna olar o'zdek.

Qorag'oy-balqar, doka,  
Gagauz, qrim-tatar.  
Turk, ozar tili, turkman,  
Bir-biriga birodar.

O'z tilim bilsam puxta,  
Qarang, qancha tilliman!  
She'rimga qo'yib nuqta,  
G'ururlanib kuylayman.

Qipchoq, qarluiq, o'g'uzdan,  
Tarkib topgan o'zbek til.  
Yolg'on so'z, yomon ko'zdan,  
Asraymiz biz o'zdek till!

## SHOHDIRSAN, HAR GAPIING AJIB SHOHBAYTDIR!

Baxtga kon diyorumizning baxtiyor bolajonlari!

Sizga atalgan kun – 1-iyun bayrami muborak bo'lsin!

Siz ota-onaning ko'z-qarog'i, elning mehr bulog'i, yurtning umid chirog'isiz. Tabassumingizdan dunyo yorishadi, kulungiz borliqni yashnatadi, shodon qiyqirig'ingiz dillarni yayratadi.

Qalbingizdagi ishonch, yuzingizdagi quvonch, ko'zingizdagi hayrat, tanangizdagi g'ayrat mudom

bor va bardavom bo'lsin. Hamisha boshingizda baxt quyoshi kulsin.

Bolalik gashtini surib, zavq-u shavqqa to'lib, do'st-birodar bo'lib, ozod yurt bag'rida kamol toping, yuksaling. Jumlayi jahon bolalari sizga havas qilsin. Olamning bor baxt-u quvonchi sizga atalgan, aziz uka-singiljonlarim!

*Poyingga bu dunyo tiz cho'ksa ravo,  
Bolalik – poshsholik, donolar aytur.  
Har so'zing hukmdir – bo'lgusi bajo –  
Shohdirsan, har gapiing ajib shohbaytdir!*



**Dilshod RAJAB,**  
bolalar shoiri

## ALBATTA, ERISHAMIZ BARCHA ORZU TILAKKA

**Biz akam bilan haftalik kun tartibini belgilab oldik. Dushanbada rasm chizish, seshanbada kitob o'qish, chorshanbada musiqa tinglash, raqs, payshanbada sport, jumada onajonimizga yordamlashish, shanba, yakshanbada she'r, hadislardan yodlashni vazifa qilib oldik.**



Shuningdek, har kuni kitoblarni mutolaa qilyapmiz. Anvar Obidjon, Xudoyberdi To'xtaboyev bobojonimizning «Kichkintoylar quvonchi», «Qiz bolaga tosh otmang», Kavsar Turdiyevaning «Beg'ubor jilg'alar», Dilshod Rajabning «Poyezdning bolasi», «Kichkintoylar ensiklopediyasi» kitoblarini, «Tong yulduzi» va «G'uncha» gazeta, jurnallarni o'qiyapmiz, audioertaklarni tinglayapmiz. Buvijonim bizga diktant yozdirib, baho qo'yib beryaptilar. Akam shaxmat o'rganyaptilar. Xullas, sira zerikmay ta'tilni o'tkazyapmiz.

Ta'tilda siz ham shu she'rni yod oling-chi!

*Osmonni, ham ummonni,  
Koinotni kezamiz.  
Mehr uchun qalbni ochsak,  
Mo'jizani sezamiz.*

*Maqsadimiz – mehrlarni  
Joylash har bir yurakka.  
Biz, albatta, erishamiz,  
Barcha orzu tilakka.*

**Farzona BAHODIROVA,**  
Toshkent shahar, Yunusobod  
tumanidagi 274-umumta'lim  
maktabining o'quvchisi

## BIZ SINALGAN, SIYLANGAN XALQMIZ!

**Bugun dunyo muammosiga aylangan Covid-19 pandemiyasi bizning diyorumizni ham chetlab o'tmadi. Bu tojidor o'latga qarshi kurashish hozirda barcha millatlarning asosiy muammosiga aylandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Lekin bu borada Prezidentimiz boshchiligidagi salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday sa'y-harakatlar tufayli O'zbekistonda koronavirus bilan kasallanish holati boshqa mamlakatlarga qaraganda juda past. Covid-19 pandemiyasi bilan birgalikda o'zbek xalqi boshiga boshqa balolar ham yog'ildi.**

Buxoro viloyatidagi kuchli shamol oqibatida ko'plab aholi uy-joysiz qoldi.

Bu tabiiy ofatdan so'ng yana bir muammo – Sardoba suv omborining buzulishi katta sinov bo'ldi. Ofat natijasida 70 mingga yaqin aholi evakuatsiya qilindi. Qishloq xo'jaligi katta zarar ko'rdi. Prezidentimiz har ikkala hududga zudlik bilan yetib bordilar.

Xalqni tinchlantirdilar, ruhlantirdilar: «Eng muhimi, o'zingizni qo'lga olishingiz kerak. Bu hech kim kutmagan falokat. Barcha og'irlikni yelkamizga olib, sabr bilan chidashimiz kerak. Hozir xato qilishga haqqimiz yo'q».

O'zbek xalqi doimo har qanday vaziyatdan birdamlikda chiqib ketgan. Bu muammolarni ham birgalikda yengib o'tmoqda. Misol

uchun, respublikamizning barcha fuqarolari birgalikda Sirdaryoga oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi zaruriy mahsulotlarni yetkazib bermoqda. Viloyatimiz aholisi sirdaryolik birodarlarini o'z bag'rlarini ochib kutib olishmoqda.

Bu sinovlar xalqni yanada bir-lashtirdi, yakdillik bilan harakat qilishga o'rgatdi. Iшонaman, o'zbek xalqi bu sinovlarni ham

yengib o'tadi.

Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: «Biz sinalgan xalqmiz. Turli-turli og'ir kunlarni boshidan kechirgan xalqmiz. Shu nuqtayi nazardan bizni, xalqimizni yengib bo'ladimi o'zi?»

**Diyorbek AKBAROV,**  
Samarqand viloyati, Urgut  
tumanidagi 7-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



# TOPISHMOQLAR TEZ AYTISHLAR

Hovuz to'lguncha to lim,  
Sochlari tolim-tolim.  
Zilol suvda yuvilgan  
Bumi, Majnun – ..... (?)

\*\*\*

Uchta buzoqcha,  
Beshta uloqcha.  
Qancha oyoqcha –  
Nechta quloqcha?

\*\*\*

Oftob misli, sevikli  
Yuzida bol, sepkilli.



Anvar MIRZAZODA

Yetti soyga yetibdi yetti oy,  
Yetti joydan yetti soy.

\*\*\*

Qimirlagan qir oshar,  
Qirchillagan qirq yashar.

\*\*\*

Momaqaldiroq guldirdi,  
Momaqaymoq gulladi.



## TEST

1. Zamonaviy basketbol Ameri-  
kaning Springfild shahrida ne-  
chanchi yilda paydo bo'lgan?

- A) 1991-y;  
B) 1891-y;  
D) 1881-y.

2. 1865-yilga kelib figurali  
uchish bo'yicha mutaxassis  
... konkini yanada mukammal-  
lashtirdi?

- A) Jekson Xeyns;  
B) Devid Bryuster;  
D) Jon Spilberi.

3. Taxminan ming yil ilgari  
shaxmat o'yinida necha kishi  
ishtirok etgan?

- A) ikki kishi;  
B) uch kishi;  
D) to'rt kishi.

4. Qadimiy o'yinlardan biri-  
da fransuzlar «tenne» so'zini  
ishlatishgan. Uning ma'nosi?

- A) ushlang;  
B) iling;  
D) uloqtiring.

5. Ilk rezinali havo shari ingliz  
olim, professor Maykl Faradey  
tomonidan qaysi yili o'ylab  
topilgan?

- A) 1823-y;  
B) 1824-y;  
D) 1825-y.

Zuhra NISHONOVA  
tayyorladi

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!



1. Yungi igna,  
Burni tugma.  
Ko'zi munchoq,  
Bag'ri yumshoq.

2. Qat-qat qatlama,  
Aqling bo'lsa, tashlama.

3. Gul emas-u, bog'langan  
qilib dasta,  
Yerni gulga aylantirar  
birpasda.

4. Tikuvchiga o'rtoq o'zi,  
Bittagina jajji ko'zi.

5. Oq sandig'im ochildi,  
Olamga nur sochildi.

6. Toping-chi uning nomin,  
Sichqonning berar dodin.

7. Dum-dumaloq  
barkash non,  
Ko'k yuzida suzadi.


8. Yoz, kuz bo'yi chirqillab,  
Don tashiydi pirillab.

9. Yelib ketar bir yilda,  
To'rt og'ayni har yilda.

10. Qishda terlab ishlaydi,  
Boshqa mahal qishlaydi.

11. Kichkina dekcha –  
Ichi to'la mixcha.

Tuzuvchi:  
Manzura TAYIROVA,  
Xorazm viloyati, Xonqa tumani



BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruzza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti administratsiyasi  
huzuridagi axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi-  
da 0208-raqam bilan 2019-yil  
10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruzza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Nodira NAZAROVA

Rassom

Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-  
xonasida chop etiladi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli  
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
www.tongyulduzi.uz  
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz  
telegram: tme/tongyulduz  
Adadi – 4 000  
Buyurtma – V 4170

Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi  
uchun obunani rasmiylashtirgan  
tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni  
chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08